

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил махсус сон



Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари: –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятгов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ў.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррир: *Н.Юсупов*

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатида киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 27.10.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб,

илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (**Баённома № 13**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



CHET TA'LIMIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mahliyo Kukiboyeva,
Senior lecturer, Independent researcher,
Namangan state university

***Annotation:** Current article outlines the peculiarities of application of learner-centered approach in teaching English as a foreign language. There specified advantages and disadvantages of using student-centered language instruction.*

***Key words:** Student-centeredness, teacher-centeredness, learner autonomy, interaction, activities, group work, independent learning*

Jahonda chet til o'qitish tizimida o'qituvchi va talabalarning faoliyati nuqtai nazaridan ikki xil asosiy chet til o'qitishga bo'lgan yondashuv mavjud: birinchisi o'qituvchi ustuvorligidagi chet til darsi (Teacher-centered language classes) va ikkinchisi talaba faolligiga asoslangan chet til darsi bo'lib (Student-centered language classes), ikkinchisi o'zbek tilida metodik atama sifatida "shaxsga yo'naltirilgan yondashuv" deb yuritiladi.

Chet til o'qitish tarixida o'qituvchi ustuvorligidagi yondashuv ko'p yillar davomida ommabop sanalib kelingan bo'lsada, zamonaviy metodlarga asoslangan chet til ta'limida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ustuvorligi ortib bormoqda. O'qituvchi markaziy rolda bo'lgan chet til darslarining eng asosiy belgisi, dars jarayonida o'qituvchi nutqining talabalar nutq so'zlaydigan, muloqot qiladigan muddatdan ancha ko'p ekanligidir. Shu bilan birgalikda talaba chet til darsida asosan "tinglovchi" rolda bo'lib, u faqat o'qituvchi taqdim etayotgan til materiali bilangina tanisha oladi. Shaxsga yo'naltirilgan chet til darslarining asosiy afzalligi va xarakterli tomoni shundaki, bu yondashuv til o'rganuvchining til bilimi darajasi, til o'rganishga bo'lgan ehtiyoji, qiziqishlari, til o'rganish uslublari, poydevor bilim va ko'nikmalarini hisobga oladi hamda til materialini o'zlashtirish jarayonida erkinlik beradi [1].

Bunday chet til darslarida o'qituvchi roli esa fasilitator (facilitator of learning) ya'ni til o'rganish jarayonini osonlashtirib beruvchi sifatida bo'ladi. Shu o'rinda oydinlik kiritish zarur bo'lgan masala bu o'qituvchi va talabaning chet til darsidagi roli bo'lib, bunda "demak, talaba faol, u o'qituvchi roliga o'tadi va endi o'qituvchi nofaol, ko'proq tinglovchi bo'ladi" degan noto'g'ri tushunchaga kelinmasligi kerak [3].

Ko'p asrlik tajribaga ega bo'lgan chet til o'qitish an'analari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi dars jarayonida asosiy ishchi va amaliyotchi bo'lib sanaladi, u materialni tanlaydi, taqdim etadi, mustahkamlaydi, tushunganlikni tekshiradi, savollar beradi, xatolarni to'g'rilaydi, izohlar beradi, xulosa qiladi, baholaydi kabilar tarzidagi uslub ancha samarasiz, zerikarli va mashaqqatli bo'lib, u til o'rganuvchilarning o'rganish jarayoniga ijodiy, tanqidiy, tahliliy yondoshishlari va shaxsiy topilma va xulosalari bilan o'rtoqlashishlariga imkon bermaydi.

O'qituvchi ustuvorligidagi chet til ta'limi faqat o'qituvchiga ko'p mashaqqat tug'diribgina qolmay, asosan tinglovchi rolda qolayotgan talabalarga ham til ko'nikmalarini amalda qo'llash, o'zaro hamkorlikda ishlash, autentiv topshiriqlar bajarish orqali tilni ijodiy va samarali o'rganish imkoniyatini cheklab qo'yadi.

Shaxsga yo'naltirilgan chet til ta'limida o'rganuvchilar asosiy urg'u berilayotgan mavzu yuzasidan o'qituvchi bilan munozara va muhokama qilishlari, mashq va topshiriq turlari,



ularga ajratiladigan vaqt taqsimoti, baholashga bo'lgan yondashuv va faoliyat turlarini tanlash imkoniyatlari beriladi [4].

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning eng xarakterli jihatlari shuki, unda talabalar faolligi, hamkorlikda ya'ni juftliklarda, kichik guruhlarda ko'proq ishlash, tengdoshlari va o'zining javoblariga munosabat bildirishi, talabalarning nutqi va muloqot qilish muddatlari o'qituvchilikdan ko'p bo'lishi, talabalarning shaxsiy fiklari va tanlovlari e'tiborga olinishi muhim hisoblanadi.

Chet til o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning bosh tamoyillari quyidagichadir:

- talabalar o'z o'rganish jarayonlariga mas'uldirlar
- dars jarayonidagi talabaning faol ishtiroki va jarayonga qamrab olinganligi til o'rganishning muhim hususiyatidir
- dars jarayonida talabalar o'rtasida tenglik hissi ustuvor omildir, o'rganuvchilar faol va nafaolga ajralib qolmasligini ta'minlash zarur
- o'qituvchi fasilitator va ma'lumotlar manbasidir
- o'rganuvchilar til o'rganishdagi shaxsiy qiyinchiliklari va muammolariga yechim topa olishni o'rganishlari zarur
- chet til darsi haqiqiy hayotda uchraydigan tilga oid ehtiyojlar, ijtimoiy vaziyatlardan kelib chiqib muloqot va nutqiy ko'nikmalarni o'stirishga qaratilishi lozim [5].

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosidagi chet til darslarining afzalliklari quyidagichadir:

- talabalar kichik guruhlarda ishlash orqali chet tilida muloqot qilish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantiradilar
- dars jarayonida talabalar bir-birlari bilan o'zaro muloqot qilish orqali jarayonga ko'proq qiziqadilar va faol ishlaydilar
- talabalar o'z o'rganish jarayonini yo'naltira oladilar, savollar so'rashlari mumkin va berilgan topshiriqlar ustida mustaqil ishlay oladilar
- talabalar o'z o'rganish jarayonlari va o'z galar nutqiga munosabat bildirish va izohlar berish orqali baholay oladilar
- o'rganish jarayonidagi o'z qiyinchiliklarini aniqlaydilar va muammolarga yechim topa olish ko'nikmasini o'stiradilar

Har bir yaratilgan metod yoki yondashuv muayyan maqsad va natijani ko'zlaydi, ma'lum bir muhitga va o'rganuvchilarga qaratilgan bo'lish bilan birga muayyan afzalliklar va noqulayliklarga ega bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosidagi chet til darslarida quyidagi noqulayliklar va noafzalliklar kuzatilishi mumkin:

- talabalar muloqoti va jamoada ishlash omili ustuvor bo'lganligi uchun dars jarayoni shovqinli, gavjum, harakatlarga boy va biroz tartibsiz tusda bo'lishi mumkin
- talabalarning barchasini topshiriqlarga jalb qilish muhim bo'lganligi uchun, talabalarni ishlash tezligi har xilligi tufayli o'qituvchiga darsning turli bosqichlarida vaqt taqsimotiga doir qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin
- o'qituvchi topshiriqlar bajarilishi yuzasidan batafsil izohlar va ma'lumotlarni bermaganligi bois, ayrim talabalar topshiriqni bajarishda qiynalishi va muhim elementlarni qoldirib ketishi mumkin
- ayrim talabalar guruhlarda ishlashdan ko'ra topshiriqlarni yolg'iz bajarishni afzal ko'rganlari uchun, jamoada ishlash zerikarli yoki qiyin bo'lishi mumkin



Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosidagi chet til darslarining quyidagi beshta asosiy xususiyatlari farqlanadi:

1. Chet til darsida talabalar gavjum, shovqinli, ko'p harakatli, o'zaro faol jarayonda ishlashadi. Aslida o'qituvchi talabalardan ko'ra ko'proq yukni tortadilar, ya'ni til materialini mazmun va mundarijasini tanlaydilar, talabalar bilan mashq va topshiriqlar yuzasidan muhokama qiladilar, barchaning faol va imkon qadar teng ishtirokini ta'minlaydilar, vaqt taqsimotini qiladilar, munosabat va izohlar bildiradilar, misollar keltiradilar, rag'batlantiradilar

2. O'qituvchi talabalarga tayyor, natijasi ma'lum bo'lgan ma'lumotni emas, qanday qilib ma'lumotni o'zlashtirishni, muammoga yechim topishni, dalillarni tahlil qilishni, taxmin qilish va baholay bilishni o'rgatadilar. Obrazli qilib aytganda, ular "baliq tutib bermaydilar, balki qanday qilib baliq tutishni o'rgatadilar".[2]

3. O'qituvchilar dars jarayonida talabalarni o'z o'rganish jarayonlariga tahliliy yondoshishga undaydilar. Talabalar bilan nimani o'rganayotganlari, nimada qiynalayotganlari va shu muammolarga qanday yechim topish mumkinligi haqida gaplashadilar. Talabani o'z faoliyatini tahlil qilish va baholay olishga o'rgatadilar. Bundan ko'zlangan maqsad o'zi qanday o'rganuvchi ekanini anglashga o'rgatish va eng munosib usulni o'zi tanlashga erishishidir. Talaba o'z o'rganish jarayoniga eng ko'p o'zi mas'uldir.

4. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosidagi chet til darslari talabaga o'rganish jarayonida erkinlik, tanlash imkoni va o'z-o'zini nazorat qilish huquqini berishi tufayli motivatsion xususiyatga egadir. O'qituvchilar dars jarayonida ustuvorlik va boshqaruv huquqini talabalar bilan bo'lishadilar, ya'ni topshiriqlarning turlari, vaqt taqsimoti, tugatish va topshirish muddati, bajarish usullari va baholash mezonlari yuzasidan erkinlik va tanlash imkoniyatini beradilar [6].

5. Mazkur yondashuvda talabalarning hamkorlikda ishlashiga urg'u beriladi. O'qituvchilar dars jarayonida chetdan kuzatuvchilar emas, balki jarayonning faol ishtirokchilaridir. Talabalar bir-birlaridan va birgalikda samaraliroq o'rganadilar, ular qoida va strukturalarni o'z xulosalari asosida ishlab chiqadilar, o'qituvchilar har kim o'z ulushini qo'shishiga undaydilar va rag'batlantiradilar[7].

Xulosa qilib aytish mumkinki, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosidagi chet til ta'limida faoliyat turlarida talaba ustuvorligi, uning ko'proq o'rganishi, mashq qilishi va shaxsiy xulosalar chiqarishi, chet til o'rganishga oid qiyinchiliklari va muammolariga yechim topa bilishi, hamkorlikda ishlashiga urg'u beriladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur yondashuv o'zida

- Faol o'rganish (Active learning),
- Hamkorlikda o'rganish (Cooperative learning)
- Vazifaga asoslangan til o'qitish (Task based language teaching)

- Loyihalar asosida til o'qitish (Project-based language teaching) kabi bir necha metodlarning xususiyatlarini o'zida mujassamlaydi. Chet til darslarini imkon qadar samarali tashkil etish o'qituvchining eng muhim vazifasi bo'lib, buning uchun u o'rganuvchilarning ehtiyojlaridan, til o'rganish xususiyatlaridan kelib chiqib turli metodlar uyg'unligidan foydalanishi mumkin.



References

1. Axmedova L. «Общеввропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка» в образовательном процессе республики узбекистан. <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04>
2. Bolitho, R Teacher development training recourses for Uzbek Higher education language teachers, 2013
3. Richards. C. Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press, 2006
4. Sowden, C. Culture and the good teacher in the English language Classroom. ELT journal, 2007 vol.61/4pp.304-310
5. Tudor I. Learner-centeredness as language education. Cambridge university press, Cambridge, 1996
6. Walters, V. Teacher-centered Versus Student-centered Instruction: A Descriptive Case Study. London: ASCD, 2011
7. Weimer, M. Learner-Centered Teaching: Five Key Changes to Practice. New York: John Wiley & Sons, 2013.
8. www.britishcouncil.org/learnenglish
9. www.teachingenglish.org.uk

INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA TANQIDIY FIKRLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Tuychiev Adkhamjon Tuhtaboevich

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tel.: 99 510 71 75, e-manzil: adham.tuychiev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek talabalariga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish uchun asosiy qadriyatlar tuzilmalari ko'rib chiqiladi. Bu til o'rganuvchilarning tanqidiy tafakkur rivojlanishiga milliy fikrlash qobiliyatining ta'sirini namoyish etish uchun turli xil madaniy tafakkur xususiyatlari yuzaga kelishiga olib keladi. Bu borada tanqidiy fikrlashning tarbiyaviy kontseptsiyasi sifatida madaniyatga asoslangan ko'rsatmalar bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, tanqidiy tafakkur, madaniyat, verbal va noverbal, talaba.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Туйчиев Адхамжон Тухтабоевич

Независимый исследователь Наманганского государственного университета

Тел.: 99 510 71 75, э-почта: adham.tuychiev@gmail.com

Аннотация. В этой статье обсуждаются ключевые структуры ценностей, которые помогут узбекским учащимся развить навыки критического мышления. Это приводит к появлению различных черт культурного мышления, чтобы продемонстрировать влияние способности национального мышления на развитие критического мышления у изучающих язык. В качестве образовательной концепции критического мышления представлены руководящие принципы, основанные на культуре.